

O'ZBEK ADABIYOTIDA ZULLISONAYNLIK AN'ANALARI

S.R.Karimova, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti

Annotatsiya. Zullisonaynlik Sharq xalqlari, xususan, fors-tojik va o'zbek adabiyotlarida qadimiyligi an'analarga ega poetik san'atlardan hisoblanadi. Bu adabiy hodisa she'riy usul sifatida bir baytning ikki tilda o'qilishiga asoslanadi. Zullisonaynlikning ikkinchi ko'rinishi bir ijodkorning ikki tilda asar yozishi, ancha keng tarqalgan an'anadir.

Kalit so'zlar: an'ana, zullisonaynlik, poetik san'atlar, ikki tillilik, fors-tojik va o'zbek adabiyoti, shiru shakar, mulamma, adabiy aloqa, o'zaro ta'sir, bayt, do'stlik, radif, tatabbu', qasida.

Zullisonaynlikning «shiru shakar», «mulamma» kabi ko'rinishlari mavjud. «Shiru shakar» va «mulamma»ning takomili esa to'la ma'nodagi zullisonayn qalamkashlarni – ikki tilda original asarlar yaratuvchi shoirlarning balog'atga yetishida qulay vaziyat hozirladi. XV asrning birinchi yarmidayoq «zullisonaynlik», «shiru shakar», «mulamma» poetik san'atlar doirasidan chiqib, o'zbek va fors-tojik adabiyotlarining mustaqil sohasi darajasiga ko'tarildi.

Zullisonaynlik tarixi badiiy so'z san'atining o'zi singari qadimiyyidir. Bu an'analing tug'ilishi va taraqqiyoti xalqlar o'rtasidagi aloqa va hamkorlik munosabatlarining paydo bo'lishi jarayoniga borib tutashadi. Xalqlar, mamlakatlararo bahamjihat munosabatlar, iqtisodiy-siyosiy muomala, savdo-sotiq ishlari qanchalik keng avj olsa, madaniy aloqalarning ko'lami ham shunchalik kengayadi, ravnaq topadi. Shu bilan bog'liq ravishda til, turmush, adabiyot va san'atda ijobiy ma'nodagi yangiliklar ko'payib boradi. Eslatilgan jarayon jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ko'zga tashlanadi. Ammo, ana o'sha jarayonning sodir bo'lishi hamma xalqlar taqdirida bir xilda kechmaydi. Masalaning bu tomoni ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-geografik muhit bilan izohlanadi. Yani xalqlarning bir-biriga tutash hududlarda yashashi, kurash va mehnat tarzining

monandligi, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarning taqozosi sifatida o‘zaro yaqinlashish jarayoni boshlanadi va davom etadi.

Dilda bori til tufayli ro‘yobga chiqadi, necha-necha qalblarga yo‘l topib yashaydi, kishilarga zavq-shavq hadya etadi. Tilsiz she’riyat ham, ilm-fan, adabiyot ham bo‘lmaydi. Fikrning ifodalanish quroli – til bilishga bo‘lgan qiziqish, bir necha tilda ijod qilish an’anasi ancha olisdan boshlanadi va u ko‘pchilik xalqlar adabiyotida uchraydi. Muhimi shundaki, zullisonaynlik hodisasining amal qilishida tillarning genetik jihatdan bir-biriga yaqin va yo mutlaqo uzoqligi hal qiluvchi rol o‘ynamaydi.

Zullisonaynlikning adabiy an’anaga aylanishi va uning izohi lug‘at va ilmiy risolalarda ko‘rina boshladi. Masalan, “Navoiy asarlari lug‘ati”da yoziladi: “Zullisonaynlik, arabcha ikki til egasi, ikki tilni biluvchi, ikki tilda ijod qiluvchi”. “Tojik tilining izohli lug‘ati”da ham xuddi shunday fikr o‘rtaga tashlanadi. Poetik san’atlar ustida bahs yurituvchi asarlarda “zullisonayn”lik she’riy usul sifatida talqin etiladi.

Turkigo‘y shoirlarning tojik tilida qalam tebratishi XV asrning ikkinchi va XVI asrning birinchi yarmida ham o‘zbek-tojik xalqlari do‘stligining ramzi sifatida amal qildi. Bu xususda Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkiratush-shuaro», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» singari asarlari qimmatli ma’lumotlar beradi. O‘zbek adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy o‘z zamonida turkiy tilda vujudga kelgan har bir asarni alohida sinchkovlik bilan o‘rgangan. Uning faoliyatida hayotga, atrof-muhitga, adabiyot olamiga haqiqatgo‘ylik ko‘zi bilan qarash an’analari birinchi o‘rinda turadi. Ulug‘ shoir tabiatidagi o‘sha oljanob fazilat zullisonaynlik bobidagi ma’lumotlarni to‘plash misolida yanada ravshanlashadi. «Majolisun-nafois»da zikr etilgan 459 san’atkordan 39 tasi turkigo‘y yoki zullisonayn ijodkorlar hisoblanadi.

Zullisonaynlik Sharq xalqlari, xususan, fors-tojik va o‘zbek adabiyotlarida qadimiy an’analarga ega poetik san’atlardan hisoblanadi. Bu adabiy hodisa she’riy usul sifatida bir baytning ikki tilda o‘qilishiga asoslanadi. Zullisonaynlikning ikkinchi ko‘rinishi bir ijodkorning ikki tilda asar yozishi, ancha keng tarqalgan

an'anadir. O'zbek adabiyoti tarixida Xorazmiyning «Muhabbatnama»sida mustahkam shakllangan bu an'ana adabiyotning Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Muhammadjon Vasliy singari zabardast vakillari ijodiga qadar davom etib keldi. Ikki tillilikning bu shakli bir ijodkorning o'z adabiy faoliyati davomida ikki tilda qalam tebratib asarlar yaratishi, shu vosita bilan ikki xalq madaniyati ravnaqiga ulush qo'shishi ular do'stligini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Mumtoz adabiyotda ana shunday sharafli baxtga musharraf bo'lган tab' ahllarini «zullisonayn ijodkorlar» tarzida tilga olish ularni yuksak fazilatli shaxslar sifatida ardoqlash ham an'ana tusini olgan. Zamon taqozosi bilan bahamjihat hayot tufayli ko'pgina o'zbekcha so'zlar fors-tojik tiliga va aksi o'laroq, fors-tojik so'zları o'zbek tiliga kirib, o'zlashgan. Bularga Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy, Toshxo'ja Asiriy va Muqimiylarning ustozu shogirdligi, bamaslahat ijodiy hamkorligi qo'hilib bu ikki xalqni yanada yaqinlashtirdi. Fors-tojik adabiyoti tarixini o'zbek adabiyoti tarixidan ajratib o'rghanish mumkin emas, chunki o'zbek adabiyoti o'z taraqqiyoti yo'lida fors-tojik adabiyotining hayotbaxsh ta'sirini his etgani kabi, o'z navbatida o'sha adabiyot ravnaqi uchun samarali ta'sir ham ko'rsatishga erishdi. Xorazmiy, Yusuf Amiri, Sayfi Saroyi, mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy singari o'nlab o'zbek qalamkashlarining o'z ona tillari bilan bir qatorda fors-tojik tilida, Davlatshoh Samarqandiy, Hiloliy, Binoiy, Osafiy, Vosify kabi fors-tojik arboblarining o'zbek tilida ijod qilishi; Muhammad Solih, Amir Shayxim Suhayliy singari o'nlab tab' sohiblarining har ikki tilda birday qalam tebratib, devonlar tartib berishi bu adabiyotlar o'rtasida mustahkam mantiq zanjiri borligidan dalolat beradi. Yuqoridagilardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Zullisonaynlik o'zbek va tojik xalqlarining hamjihat hayoti jarayonida shakllanib borgan va uzoq davom etgan taraqqiyot bosqichini boshidan kechirdi. Dastlab qo'shni tilga qiziqish, uni o'rghanish va badiiy asarlarning ta'sirchanligini oshirish maqsadida o'sha tilga mansub so'zlarni qo'llash jarayonida zullisonaynlikning «shiru shakar», «mulamma» kabi ko'rinishlari yuzaga keldi. «Shiru shakar» va «mulamma»ning takomili esa to'la ma'nodagi zullisonayn

qalamkashlarni – ikki tilda original asarlar yaratuvchi shoirlarning balog‘atga yetishida qulay vaziyat hozirladi. XV asrning birinchi yarmidayoq «zullisonaynlik», «shiru shakar», «mulamma» poetik san’atlar doirasidan chiqib, o‘zbek va fors-tojik adabiyotlarining mustaqil sohasi darajasiga ko‘tarildi. Bu hayotbaxsh soha esa fors-tojik hamda o‘zbek adabiyotlari o‘rtasidagi aloqa, o‘zaro ta’sirni yanada mustahkamlashda yetakchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

Adabiyot tarixidagi zullisonaynlik an’anasi tayyor shaklda maydonga kelgan hodisa emas. Sharq xalqlari adabiyoti tarixida amal qilib kelayotgan mulammachilik poetik san’atining evolutsion o‘sish yo‘li ham ana shu fikrni o‘rtaga tashlash imkonini beradi. Mulamma – Sharq xalqlari adabiyotida ancha ommalashgan adabiy hodisa. Uning vujudga kelishi O‘rta Osiyoda tillararo kurashlarning kuchayishi bosqichlariga to‘g‘ri keladi. Zullisonaynlik va mulamma asarlar yaratish yo‘lidagi ilk urinishlar fors-tojik-arab, fors-tojik-arab-mo‘g‘ul, arab-o‘zbek, arab-o‘zbek-mo‘g‘ul shaklida namoyon bo‘ladi. Ilk mulammalarning izlari kishi nomlaridayoq ko‘zga tashlanadi. O‘rta Osiyo xalqlarining nomnomasi ko‘zdan kechirilar ekan, o‘sha kishi ismlari ro‘yxatida arabcha, forscha-tojikcha, mo‘g‘ulcha, grekcha, lotincha va yahudiycha so‘zlarning atoqli ot vazifasida kelganligi ma’lum bo‘ladi. Bunday faktlar garchi kichik bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida uning tagida katta hayotiy va tarixiy haqiqat yotadi.

Mulamma – Sharq xalqlari adabiyotida ancha keng ommalashgan poetik usullardan biri bo‘lib, unda qalam tebratish ijodkordan birgina kichik lirk janrdagi asarning o‘zida bir necha til materiallaridan foydalanishni taqozo qiladi. Hozirga qadar vujudga kelgan mulammalarning arabcha-forscha-tojikcha, forscha-tojikcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-arabcha-mo‘g‘ulcha, o‘zbekcha-arabcha, tojikcha-o‘zbekcha, tojikcha-ruscha, o‘zbekcha-ruscha, o‘zbekcha-ruscha-tojikcha so‘zlar qorishmasidan yaratilganligi fikrimizning isboti bo‘lib xizmat qiladi. Mulamma atamasi bilan parallel tarzda she’rlar uchun ilmiy va badiiy adabiyotlarda «shiru shakar», agar bu xususiyatga molik asarlarda uch tilga oid so‘zlar qatnashgan bo‘lsa, «shaxdu shiru shakar» mavhumlari ham qo‘llaniladi.

Mulammada ijod etilgan asarlarning baytlar miqdorini qat’iy cheklash qiyin.

Mulammalar baytlar miqdori jihatidan turlicha (eng kichigi 4 misra va eng kattasi 26 bayt, hatto undan ham ko‘p bo‘lishi mumkin) bo‘ladi. Masalan,

Shiru shakardek biri birlan qarin,

Hamsabaku hamnafasu hamnishin.

(Yu. Amiriy)

Ramuzul - ishq konat mushkilam bil — aks hallilho,

Ki on yoquti mahlulat namoyad halli mushkilho.

(A.Navoiy)

Zamonlar o‘tishi bilan mulammachilikning yangi-yangi shakllari vujudga keldi. Masalan, mavlono Lutfiyning

Ko‘rdum seni, ketdi g‘am, alminnatullah,

Jon topdi hayot ushbu dam, alminnatullah -

matlai bilan ibrido topuvchi g‘azalida arab tilidan olingan «alminnatullah» so‘zi radif vazifasida kelib shoir tasviridagi psixologik holatning jonli, jozibali va kutilganday chiqishida xizmat qilgan.

Adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiyning tabarruk nomi zullisonayn ijodkor sifatida ham qadrlidir. Shoir bu sharafli unvonga boy ma’naviy merosi tufayli sazovor bo‘ldi. U fors-tojik tilini puxta bilibgina qolmay, qadimiyan’analarga boy bu tilning imkoniyatlaridan ham durustgina xabardor edi. Buni ulug‘ adibning «Muhokamatul-lug‘atayn» asari to‘la tasdiq etadi. Aytish kerakki, Alisher Navoiy fors-tojik tilini kamsitish yo‘lidan bormaydi. Fikrimizcha, tili boshqa-boshqa, ammo, dili, fe’l-atvori, urf-odati, kasb-kori, mavsum-marosimi, turmush tarzi, taqdir va tarixi tutash bu ikki xalqni Alisher Navoiy teng ko‘rgan va birday ardoqlagan. Xalqlarimizning do‘stlik tarixidan chuqur xabardor bo‘lgan ulug‘ o‘zbek shoiri o‘sha shaffof birodarlik sahifalariga dog‘ tushishini, xiralashib qolishini istamagan. Buni uning ilmiy va badiiy merosi to‘la quvvatlaydi.

Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi asarlari mukammal bir to‘plam tusini olgan. Adabiyot tarixida «Devoni Foniy» nomi ostida ma’lum bo‘lgan bu kitobning mundarijasи xususida muallifning o‘zi «Muhokamatul-lug‘atayn»

asarida shunday mulohaza yuritadi: «Yana forsiy g‘azaliyot devoni Xoja Hofiz tavridakim, jami’ suxan adolar va nazm piyolar nazarida mustahsan va matbu’dur, tartib beribmankim, olti mingdan ab’yoti adadi kuprahdurki, ko‘prak ul hazrat she’riga tatabbu’ voqe’ bo‘lubtur». Ko‘chirilgan parchadan «Devoni Foni»ning ikki muhim xususiyati ayon bo‘layotir. Bulardan birinchisi, shu to‘plam tarkibidagi asarlar aksariyatining Xoja Hofiz Sheroziy g‘azaliyotiga tatabbu’ qilinganligi hisoblanadi. Ikkinchisi, to‘plamga kiritilgan she’rlar miqdorining olti ming baytdan ko‘proq ekanligidir.

«Muhokamatul-lug‘atayn» asarining Alisher Navoiy fors-tojik tilidagi merosini o‘rganishdagi muhim manbalik roli yana shundaki, unda «Devoni Foni» to‘plamining nashrlariga kirmay qolgan anchagina qasidalarning nomi tilga olinib, matlalari keltiriladi. Jumladan, «Nasimul-xuld», «Ruxul-quds», «Aynul-hayot», «Minhojul-najot», «Quvvatul-qulub» qasidalari va to‘rt qasidadan iborat «Fusuli arbaa»ning mundarijasи bayon etiladi. Sharq klassik she’riyatining to‘qqiz janrida yaratilgan bu merosning hajmi «Muhokamatul-lug‘atayn»dagi ma’lumotlarga ko‘ra o‘n ikki ming misradan ko‘proqdir.

Professor Hamid Sulaymon Alisher Navoiy asarlari o‘n besh tomligiga yozgan so‘zboshisida «Devoni Foni»dagi she’rlarning umumiyligi hajmini 6197 bayt yoxud 12394 misra deb ko‘rsatadi. Fikrimizcha, bu raqam ham tugal emas. Chunki H. Sulaymon aniqlagan redaksiyada Alisher Navoiy forsiy qasidalarining soni yetta deb ko‘rsatiladi. Holbuki, «Sittai zaruriya» va «Fusuli arbaa» tarkibida o‘nta qasida joylashtirilgan bo‘lib, ularning umumiyligi hajmi ikki ming ming misradan oshadi. Ko‘rinadiki, yuqoridagi raqamga uch qasidaning misralari qo‘shilmay qolgan.

Aytilganlar hisobga olinadigan bo‘lsa, Navoiyning fors-tojik tilidagi asarlari o‘n uch ming ming misraga yaqinlashadi. Aslida, shuncha baytdan tuzilgan she’riy merosni yaratishning o‘zi bir umrni talab qiladi, ikkinchidan, bunday salmoqqa ega asarlar fors-tojik adabiyoti ravnaqiga qo‘silgan bebahol ulushdir.

Fors-tojik adabiyoti vakillarining qardosh tillar, xususan, o‘zbek tilida qalam tebratishi o‘z tarixiga ega. Garchi bu hodisaning dastlabki unsurlari fors-tojik

adabiyoti tarixiy taraqqiyotining XII-XIII asrlariga to‘g‘ri kelsa-da, keng rivoj topishi XV asrning oxiri va XVI asr boshlaridan boshlanadi.

Tojik adabiyotida o‘zbek tilida ijod qilish bilan bog‘liq zullisonaynlikning bunday tus olishi qator ijtimoiy-siyosiy va tarixiy omillar bilan izohlanadi. XV asrning so‘nggi choragi va XVI asr ibtidosida o‘zbek tilining nufuzi yanada ko‘tarilib bordi. Afg‘onistonu Hindistonda boburiylar sultanatining paydo bo‘lishi bilan ayni paytda bu o‘lkalarda ham turkiy til taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoitlar hozirlandi. Tarix maydonidagi bunday siljishlar turkiy tilning o‘zaro aloqa, muomala, munosabat funksiyasidagi rolini oshirish bilan birga, unga ikkinchi ona tiliday munosabatda bo‘lish, tabiat va jamiyat voqeа-hodisalari uyg‘otgan his-hayajon, tuyg‘ularni badiiy ifodalashga bo‘lgan havas va rujuni ham kuchaytirdi. Shu tariqa «ikki tillilik Navoiydan so‘ng tojik adabiyotida ham mustahkam o‘rin olib, qutlug‘ an’ana sifatida davom ettirildi». Natijada XV asrning oxiri va XVI asr boshlarida yashagan Binoiy, Vosifiy, Davlatshoh Samarqandiy, Hiloliy singari talantli tojik shoirlari Alisher Navoiyga ergashib o‘zbek tilida ham anchagina go‘zal she’rlar, g‘azallar yaratganlar.

XV asrning oxiri va XVI asr boshlaridagi tojik adabiyotida zullisonaynlik an’analariga amal qilgan, o‘z ona tili qatorida ba’zan o‘zbekcha she’rlar bitgan shoirlardan yana biri Jamoliddin Binoiydir. Mavlono Binoiy mulammalari va sof o‘zbek tilida ijod qilingan she’rlari bilan ikki tillilik rivojiga sezilarli ulush qo‘sha oldi. Ma’lumki, bu qalamkashning hayot yo‘li ikki sulola sultanati yillariga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham u birmuncha notinch va uqubatli hayot manzaralarini boshidan o‘tkazgan. Goh temuriylar va goh shayboniylar dargohida panoh topgan. Shoirning ana shunday darbadar hayoti, keyincha, Shayboniyxon oldida nufuz topib, unga yaqinlashuvi bilan bog‘liq tarzda uning o‘zbek tilidagi she’rlari maydonga kelgan. Biroq, manbalarning guvohlik berishicha, shoirning bu tildagi adabiy merosi deyarli ko‘p emas. Bundan qat’i nazar, mavlono Binoiyning o‘zbek tilidagi tarqoq asarlari ham uning bu tilni anchagina yaxshi bilishidan darak beradi.

Badriddin Hiloliyning zullisonaynlikka munosabati o‘zgacha yo‘nalishni tashkil qiladi. Chunki u kelib chiqishi nuqtayi nazaridan turkiy qabilalarga mansub

bo‘lsa-da, umr bo‘yi tojik tilida dilbar asarlar ijod qilib, tojik adabiyotining zabardast qalamkashlari ro‘yxatidan joy olgan. Alisher Navoiy ham o‘zining «Majolisun-nafois» asarida mavlono Hiloliy haqida mulohaza yuritib, uning turk elidan ekanligini ta’kidlagani holda, tojik tilidagi she’ridan parcha ko‘chiradi. Umri davomida tojik tilida ijod qildi va fors-tojik adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.

Shunisi xarakterlikni, adabiy aloqa va o‘zaro ta’sirning voqe bo‘lishida qator ideologik va estetik faktorlar qatnashadi. Ana shunday g‘oyaviy va estetik ildizi bo‘lgan adabiy aloqagini mustahkam, uzoq yashovchi va ayni zamonda, chinakam o‘zaro ta’sir uchun zamin yaratish imkoniga egadir. Bunday adabiy aloqa va o‘zaro ta’sir ikki mamlakat, alohida olingan hududdagi adabiyotlar uchun foyda keltiradi, ularda chinakam ijodiy muhitning rivoji, istiqbol ufqlarining kengayishi, umuminsoniy g‘oyalar bilan sug‘orilgan yuksak mahoratli asarlarning vujudga kelishida ilhombaxsh turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзоев А. Сездаҳ мақола. –Душанбе: 1977. – Сах. 163.
2. Мумтоз Салмон. Озарбайжон адабиётининг манбалари. – Баку, 1986. - Б. 262-266.
3. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент : 1968. – Б. 72.
4. Пардаева, И. (2020). Ғоя, бадиият, таркиб ва тартиб. Иностранный филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 74-77.
5. Pardaeva, I. M. (2014). ON THE EXAMPLE OF THE ARTISTIC AND HISTORICAL PROSE OF NAVOI IN TURKISH. The Way of Science, 73.
6. PARDAEVA, İ. ALISHER NAVOIYNING “TARIXI MULUKI AJAM” ASARIDA ZOLIM SHOHLAR TASVIRI. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD), 2(1), 463-467.
7. Пардаева, И. (2018). Анушервон адолат тимсоли. Иностранный филология: язык, литература, образование, 3(2 (67)), 109-112.
8. Mamirova, D. S. (2022). ADVERTISING IS A SOCIO-LINGUISTIC STUDY AS AN OBJECT. ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ, 109.

9. Mamirova Dilnoza Shirinboyevna (2022). FEATURES OF ACCOUNT WORDS IN ADVERTISING TEXTS. *Science and innovation*, 1 (JSSR), 151-154. doi: 10.5281/zenodo.7299742.
10. Rakhmatova, D. (2020). MAKHMUDKUJA BEKBUDI AND LANGUAGE ISSUE. *Интернаука*, 24(153 часть 3), 11.
11. Nusratilloevna, R. D. (2020). Makhmudkhuja Bekhbudi and Enlightenment. *Проблемы науки*, (6 (54)), 60-62.
- Iroda Mamayunusovna Pardaeva (2022). NAVOI AND THE WISDOM OF HISTORY. *Science and innovation*, 1 (Special Issue 2), 1-83. doi: 10.5281/zenodo.7507063